

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR**  
**INSTITUTI**

**XAYDAROV MIRG‘OFUR G‘AYRATOVICH**

**PAUERLIFTER PARALIMPIYACHILARNING TAYYORGARLIK**  
**SAMARADORLIGINI TIKLOVCHI TADBIRLAR ASOSIDA OSHIRISH**

**13.00.04 - Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2024**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Xaydarov Mirg‘ofur G‘ayratovich**

Pauerlifter paralimpiyachilarning tayyorgarlik samaradorligini tiklovchi tadbirlar asosida oshirish.....3

**Хайдаров Миргофур Гайратович**

Повышение эффективности подготовки пауэрлифтеров паралимпийцев на основе восстановительных мероприятий.....27

**Khaydarov Mirgofur Gairatovich**

Increasing of training effectiveness of Paralympic powerlifters based on recovery activities .....51

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....56

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR**  
**INSTITUTI**

**XAYDAROV MIRG‘OFUR G‘AYRATOVICH**

**PAUERLIFTER PARALIMPIYACHILARNING TAYYORGARLIK**  
**SAMARADORLIGINI TIKLOVCHI TADBIRLAR ASOSIDA OSHIRISH**

**13.00.04 - Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasida B2021.1.PhD/Ped2327 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining [www.uzdjtsu.uz](http://www.uzdjtsu.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida ([www.zionet.uz](http://www.zionet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Matkarimov Rashid Masharipovich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Raximov Vladimir Shavkatovich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Arziqulov Muqum O‘rolovich**  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy.Tel.: (0-370) 717-17-79, 717-27-27, faks: (0-370) 717-17-76, Veb-sayt: [www.uzdjtsu.uz](http://www.uzdjtsu.uz), e-mail: [uzdjtsu@uzdjtsu.uz](mailto:uzdjtsu@uzdjtsu.uz). O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti “B” binosi, 2-qavat, Ilmiy kengash majlislar zali).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy.Tel: (0-370) 717-17-79, 717-27-27, faks.: (0-370) 717-17-76.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil “\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2024 yil “\_\_” \_\_\_\_\_ da \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi)

**F.A.Kerimov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

**L.Z.Xolmurodov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash kotibi,  
p.f.b.f.d. (PhD), dotsent

**O.J.Dadaboyev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi p.f.d. (DSc), dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda pauerlifting sport turi nogironlar o'rtasida paralimpiya sportini ommalashtirishda muhim o'rinlardan birini egallaydi va butun dunyo bo'ylab para-sportchilarga jahon arenalarida qatnashish uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. Paralimpiya pauerliftingi jismoniy sifatlarni rivojlantirishda o'ziga xos xususiyatlariga egaligi sababli soha mutaxassilari oldiga yangi vosita va uslubiyatlarni yaratish vazifasini qo'yimoqda. Jahon paralimpiya pauerliftingida bugungi kunda ushbu sport turini ommalashtirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi.

Jahonda paralimpiya sport sohasi mutaxassis olimlari tomonidan pauerlifting natijalarini yaxshilash bilan bir vaqtda sportchining salomatligini asrash, maksimal darajadagi yuklamalarga organizmni moslashtirish, texnik tayyorgarligining turli bosqichlarida yangi elementlar va vositalarni mashg'ulotga kiritish muammolari yuzasidan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilyapti. Paralimpiya pauerliftingi insonning psixofizik resurslarini va, umuman olganda, mehnat qobiliyatini tiklash, ijtimoiy hayotga integratsiyalash va jismoniy faol hayotga moslashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qayd etish joizki, jahon miqyosida raqobat kuchayib borayotgan paralimpiya pauerliftingida parasportchilarni tayyorlashning zamonaviy uslubiyat va tizimlaridan foydalanish zaruriyati kuzatilmoqda.

Respublikamizda paralimpiya pauerliftingi bilan shug'ullanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, respublika aholisining barcha qatlamlari salomatligini mustahkamlash, iqtidorli sportchilarni tanlab olish, tarbiyalash va oliy sport mahorati darajasiga olib chiqish vazifasiga davlat dasturining bir qismi sifatida alohida ahamiyat berilmoqda. "Paralimpiya sport turlarini ommalashtirish, iqtidorli sportchilarni saralash va ularni professional sportchilar sifatida tayyorlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish"<sup>1</sup> vazifasini amalga oshirish maqsadida o'quv uslubiyati va tizimlarini qayta ko'rib chiqish zaruriyati yuzaga kelayotir. Paralimpiya pauerliftingi bilan shugullanuvchilar natijalarining jadal o'sishi jahon miqyosida ko'rsatadi va sog'lom raqobatni oshirishga katta ta'sir ko'rsatmoqda, bu esa o'z navbatida yangi sport maktablarini ochish, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun sport inshootlarini qurishni taqozo etmoqda. Ushbu tendensiya ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasini takomillashtirish va parasportchilarning hayot sifatini oshirishning asosiy omili bo'lib, bu yerda ularning ijtimoiy moslashish, mehnatga va jamiyatga integratsiyalashish uchun barcha sharoitlarni yaratish, sport natijalarini yaxshilash bilan bir vaqtda ko'p yillik tayyorgarlik tizimi uzviylikini ta'minlashni talab etmoqda. Mamlakatimizda paralimpiya pauerliftingining tarkibiy qismlari – intellektual va jismoniy komponentlar birligi, imkoniyati cheklangan shaxslarni texnologik hayotga tayyorlash faoliyati sifatida e'tirof etilgan. Shuningdek, Paraosiyo va Paralimpiya o'yinlarida yurtimiz sharafini

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-maydagi "Paralimpiya harakatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5114-son Qarori

himoya qiladigan paralimpiyachi pauerliftingchilarni tayyorlashga ilmiy yondashuvni amalga oshirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-sonli “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5279-sonli “Sport ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali Olimpiya va Paralimpiya sport turlari bo‘yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5281-sonli “2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohadagi bir qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Tadqiqot Respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga bog‘liq holda amalga oshirilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Ilmiy ishlar va amaliy tadqiqotlar ko‘rib chiqilganda ma’lum bo‘ldiki O‘zbekistonlik olimlar N.K.Svetlichnaya, L.B.Sobirova tomonidan nogiron va jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarning umumiy jismoniy tayyorgarligini yaxshilash, D.D.Safarova tomonidan sportchilarni musobaqalarga tayyorlashda funksional ko‘rsatkichlarini tekshirish va jismoniy ish qobiliyatlarini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan<sup>2</sup>.

Mustaqil Davlatlar hamdo‘stligi olimlari O.E.Aksenova, Yu.I. Atman, A.Agayri, G.N.Gretz, P.F.YEvseyeva, G.P.Ivanova, D.V.Spiridonova, E.N.Sautina, V.G. Kalyujin, K.N.Popov, K.N. Raxovich, T.V.Volosnikova, O.A.Kozlova, E.Yu.Korotayeva kabi mutaxassislar tomonidan parasportchilarning funksional holatidagi muammolari kuch sifatleri darajasini oshirish, tezlik, tezlik-kuch, kuch chidamkorligi, portlovchi kuchini tarbiyalash masalalari o‘rganilgan. Shuningdek, paralimpiya sportida qo‘llanadigan musobaqa faoliyati modellari ishlab chiqilgan, ular jismoniy tarbiya va sport vositalari yordamida parasportchilarning harakat qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga bag‘ishlangan<sup>3</sup>.

---

<sup>2</sup> Светличная Н.К. Педагогические условия реализации оздоровительных технологий в адаптивном физическом воспитании детей / Журнал «Фан – спортга», №1, 2017. – С. 39-43.; Сабирова Л.Ю., Современное состояние и перспективы развития адаптивной физической культуры и адаптивного спорта в Узбекистане // сб. материалов национальной науч.-практ. конф., Шуйский филиал ИвГУ. – Шуя, 2020. - С. 16-20.; Сафарова Д.Д. Оценка морфофункционального состояния пауэрлифтеров-паралимпийцев с нарушениями опорно-двигательного аппарата // Инновационные технологии спортивной медицины и реабилитации: Материалы II Междунар. науч.-практ. конф., Минск, /Белорус. гос. ун-т физ. Культуры. – 2021. - С. 203-208.

<sup>3</sup> Аксенова О.Э. /Содержание и организация адаптивной физической культуры в профессиональной подготовке студентов высшего учебного заведения: учебно-методическое пособие / О. Э. Аксенова. — Санкт-Петербург: СПбГАФК имени П. Ф. Лесгафта, 2003. - 430 с., Ату Атман. Ю.И. /Содержание комплексной программы адаптивной физической культуры для детей школьного возраста с нарушениями опорно-двигательного аппарата. Автореф. кан. дис...пед. наук. Санкт-Петербург. гос. ун-т. физической. 6

Yetakchi xorijiy mutaxassislar F.Ioshida, I.Ishiko, I.Muraoka, D.Amiko, J.Timgren, S.Soinilaning ilmiy ishlarida para-sportchilarni nufuzli musobaqalarga tayyorlashda individual yondashuv masalalari ochib berilgan, mashg'ulot texnikasini takomillashtirish usullari, shuningdek, para-sportchilarning ish faoliyatini yaxshilash uchun yordamchi vositalarning samaradorligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.<sup>4</sup>

Ilmiy-uslubiy va maxsus adabiyotlar tahlili, ilg'or sport amaliyoti tajribasi umumlashtirilganda, pauerlifter-paralimpiyachilarning tiklanishiga bag'ishlangan ishlarga asoslangan holda ularni tayyorlash samaradorligini oshirish bilan bog'liq masalalar hal etilmaganligi va yetarli darajada o'rganilmaganligi aniqlandi. Bu, o'z navbatida, dolzarb muammoni hal qilishning zamonaviy vosita va usullarini yanada takomillashtirishni talab qiladi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti ilmiy loyihalari rejasining "Paralimpiya sport musobaqalariga zahira sportchilarni tayyorlash uchun kinematik va psixo-fiziologik tavsiflari bo'yicha saralash tizimini ishlab chiqish" mavzusidagi innovatsion ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** maxsus mashqlar va texnik vositalardan foydalangan holda tiklash tadbirlari asosida pauerlifter-paralimpiyachilarning mashg'ulot samaradorligini yaxshilashdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

individual antropometrik ma'lumotlarni hisobga olgan holda o'rindiqlarda "shtangani ko'krakdan siqib ko'tarish" mashqini bajarishda harakatning yakuniy bosqichida pauerlifter-paralimpiyachining postural mushaklari faoliyatini yaxshilash;

tayanch-harakat tizimi shikastlangan pauerlifter-paralimpiyachilarda suyak asimmetriyasining egriligini va umurtqa pog'onasining fiziologik egikligini to'g'rilash.

shtangada optimal yondashuvlar sonini va og'irligini aniqlash, shuningdek, organizmning yuklamaga bo'lgan reaksiyasini va yuklamadan keyingi tiklanish muddatini aniqlash;

---

культуры им П.Ф. Лесгафта- СПб: 2006. - С. 19-20.; Агайри А. /Частные методики адаптивной физической культуры (учебник) – М: Советский спорт, 2007. - 608 с.; Грец Г.Н. Физическая реабилитация лиц с отклонениями в состоянии здоровья и инвалидов на основе применения средств физической культуры- автор.дис... для пед. наук, Петербург. гос. ун-т им Лес СПб. 2008. – 49 с.; Евсева П.Ф. Иванова Г.П., Спиридонова Д.В., Саутина Э.Н., Калужин В.Г., Попов К.Н. Рахович К.Н и др. – Коррекция функционального состояния сердечно - сосудистой системы детей младшего школьного возраста с нарушением слуха., АФК-2009 –С. 152-154.; Волосникова Т. В. Профилактика и коррекция нарушений опорно-двигательного аппарата детей в условиях дошкольного учреждения / Волосникова Т. В., Потапчук А. А. // Адаптивная физическая культура. - 2011. - № 1 (45). – 48 с.; Козлова О.А., Коротаева Е.Ю. Адаптивная физическая культура: Учебное пособие. – Москва: Проспект, 2020. – 64 с.

4 Ioshida F., Ishiko I., Muraoka I. Effect of Endurance Training on Cardiorespiratory functions of 5-year-old children // International J. of Sports Med., 1980. V.1 №2. – P. 91-94.; Amico D / Scoliosis and asimetries a reliable approach to assess wedge Solutio efficacy. StudHealthTechnol inform 2002. – 285 p.; Timgren J, Soynila S Reversible pelvic asymmetry: An overlooked syndrome manifesting as scoliosis, apparent leg-length difference, and neurologic symptoms. Manipulative Physiol Ther 29: 2006 – P. 561-565.

qisqa muddatda bajarilgan shiddatli mashg'ulot yuklamalaridan so'ng pauerlifter-paralimpiyachi tanasining orqa mushaklarini tiklash jarayonini takomillashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida milliy terma jamoadagi tayanch-harakat apparati shikastlangan pauerlifter-paralimpiyachilar bilan olib boriladigan mashg'ulot jarayoni olingan.

**Tadqiqotning predmetini** tayanch-harakat apparati shikastlangan pauerlifter-paralimpiyachilarni tayyorlashga zamonaviy uslubiy yondashuvlar va takomillashtirilgan trenajyorlardan foydalanish samaradorligi tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda maxsus adabiyotlardan olingan ma'lumotlarni nazariy tahlil qilish va umumlashtirish; pedagogik nazorat; pedagogik tajriba; antropometrik va fiziologik tadqiqot usullari; pauerlifterlarning tayanch-harakat apparati shikastlanishi (THASH) og'ishlarini hisobga olgan holda jismoniy sifatlarini pedagogik nazorat qilish; paralimpiyachilarni tekshirishda funksional ko'rsatkichlarni o'rganish, ularning holatini va nosimmetrikliklarni aniqlash; dinamometriya usuli yordamida va shtangani ko'tarishda kuch darajasini aniqlash; G.L.Apanasenko usuli bo'yicha salomatlik darajasini aniqlash; Mashkov bo'yicha umurtqa pog'onasi holatini baholash; statodinamik xususiyatlarni baholash va tananing muvozanati hamda muvofiqlashtirish qobiliyatini saqlash uchun morfo-kineziologik tahlil usuli; olingan ma'lumotlarni qayta ishlash uchun "Push Band" akselerometri, ya'ni quvvatni o'lchovchi uskuna yordamida "shtangani ko'krakdan siqib ko'tarish" mashqida eng yuqori tezlanishni baholash hamda matematik statistika kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

paralimpiyachilar o'rindiqda "shtangani ko'krakdan siqib ko'tarish" mashqini bajarishda harakat amplitudasining yakuniy bosqichida individual antropometrik ma'lumotlarini hisobga olgan holda, parallel o'rnatilgan beqaror neylon arqonga tananing pastki qismi bilan tayanib, osilgan holda teskari tortilishdan foydalanish tufayli para-pauerlifterchilar tanasining postural mushaklarini rivojlantirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

tayanch-harakat tizimi shikastlangan paralimpiya sportchilarining (yelka kamarining asimmetriyasi, tos suyagining egilishi, egilish joyining o'zgarishi yani suyak asimmetriyasi, umurtqa pog'onasi, tananing umumiy og'irlik markazining siljishi) "Smit mashinasi" trenajyorida bajarilgan va egrilikni kamaytirishga qaratilgan ixtisoslashtirilgan va rivojlantiruvchi mashqlar majmuasi yordamida, bel mushaklarini kuchaytirish tufayli tananing yuqori qismi mushaklarini qayta tiklash va umurtqa pog'onasining fiziologik egrisini to'g'irlash imkoniyatlari kengaytirilgan;

"Push Band" moslamasi yordamida harakat tezligi va yurak-qon tomir tizimining yuklamaga bo'lgan ta'siri Polar h10 vositasida "shtangani ko'krakdan siqib ko'tarish" mashqini bajarishdagi yondashuvlar soni hamda shtanga og'irligini o'quv-mashg'ulot jarayonida qisqa vaqt ichida aniqlash hisobiga optimal hisoblash imkoniyati kengaytirilgan;

pauerlifter-paralimpiyachi sportchilarining shiddatli mashg'ulot yuklamalarini (majmuasini) bajarganidan so'ng "Spine Relaxer" trenajyorida qisqa vaqt ichida dam olish va mushaklarni bo'shashtirishga qaratilgan umirtqa pog'onasini silkitib cho'zish (pastga tortish) hisobiga tiklanish uslubiyati takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

kuch va tezlik-kuch ko'rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan optimal jismoniy faollik bilan tayanch-harakat tizimi shikastlangan paralimpiyachi - pauerlifterlar uchun o'quv dasturi ishlab chiqilgan;

takomillashtirilgan "Smit mashinasi" trenajyorlarida ixtisoslashtirilgan va rivojlantiruvchi mashqlar majmuasi ishlab chiqilgan, natijada pauerlifter-paralimpiyachilarning suyak asimmetriyasi, egriligi kamaytirilgan, shuningdek, postural mushaklar (stabilizator mushaklar) mustahkamlangan;

pauerlifter-paralimpiyachi sportchilar shiddatli mashg'ulot yuklamalarini (majmualarini) bajarganlaridan so'ng, tananing orqa mushaklarini tiklashga yordam beruvchi takomillashtirilgan "Spine Relaxer" innovatsion trenajyori ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy va uslubiy asosliligi, ilmiy tadqiqotlarning mantiqiy ketma-ketligi, o'quv jarayonida instrumental usuldan foydalanish, ya'ni "Push Band" kabi mavjud innovatsion texnologiyalar bilan tasdiqlanganligi, shtangani ko'krakdan siqib ko'tarish tezligi va kuchi, shuningdek, yurak-qon tomir tizimining yuklama ostida va yuklamadan keyin tiklanish vaqtidagi reaksiyasini kuzatish uchun "Polar h10" uskunasi yordamida ishonchli ma'lumotlar bilan taqqoslanganligi, pedagogik tajriba usullarida qo'yilgan vazifalar va tadqiqotning belgilangan maqsadiga muvofiqligi, tajriba ishlarining samaradorligi, matematik va statistik ma'lumotlarni qayta ishlash usullari bilan, bunda tadqiqot ishining tajribada asoslangan natijalari jismoniy tarbiya va sport muassasalari amaliy faoliyatiga kiritilganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotda tayanch-harakat apparati shikastlangan pauerlifter-paralimpiyachilarning kuch va tezkor-kuch ko'rsatkichlarini takomillashtirishga qaratilgan va ishlab chiqilgan mashg'ulot dasturining samaradorligini oshirish, pedagogik tajriba jarayonida olingan natijalar asosida pauerlifter-paralimpiyachilarning jismoniy ko'rsatkichlarini yaxshilash imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, maxsus jismoniy tayyorgarlikni takomillashtirish bo'yicha nazariy bilimlarni orttirish imkonini berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati stato-dinamik yuklamada postural (stabilizator) mushaklarni mustahkamlash uchun bosqichma-bosqich qo'llash shaklida taqdim etilgan maxsus rivojlantiruvchi mashqlar majmuasidan foydalanish samaradorligi hamda stato-dinamik barqarorlikni shakllantirish, muvozanatni saqlash qobiliyati darajasini oshirish va pauerlifter-paralimpiyachilar umumiy jismoniy tayyorgarligi darajasining oshirilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tajriba davomida olingan natijalar asosida ishlab chiqilgan mashg'ulot dasturi quyidagilarga imkon berdi:

paralimpiyachilar o'rindiqida "shtangani ko'krakdan siqib ko'tarish" mashqini bajarishda harakat amplitudasining yakuniy bosqichida individual antropometrik ma'lumotlarni hisobga olgan holda parallel o'rnatilgan beqaror neylon arqonga tananing pastki qismi bilan tayanib osilgan holda teskari tortilishdan foydalanish bo'yicha takliflar Qishki va murakkab texnik sport turlari bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabida parapauerlifting bilan shug'ullanuvchi sportchilarni tayyorlash jarayonida qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil 5-maydagi 04-01/04/20/4279-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, pauerlifter-paralimpiyachining oyoqlarini rostlangan holatda (to'g'ri) ushlab turish vaqti 19,5% ga oshgan;

tayanch-harakat tizimi shikastlangan paralimpiyachi sportchilarga nisbatan (yelka kamarining asimmetriyasi, tos suyagining egilishi, egilish joyining o'zgarishi yani suyak asimmetriyasi, umurtqa pog'onasi, tananing umumiy og'irlik markazining siljishi) takomillashtirilgan "Smit mashinasi" trenajyorida egrilikni kamaytirishga qaratilgan ixtisoslashtirilgan va rivojlantiruvchi mashqlar majmuasini qo'llash bo'yicha takliflar Respublika milliy paralimpiya qo'mitasida shug'ullanuvchi terma jamoa a'zolari mashg'ulotlariga tadbiiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil 5-maydagi 04-01/04/20/4279-sonli ma'lumotnomasi). Natijada pauerlifter-paralimpiyachilarning tos suyaklari egriligi  $3,19 \pm 0,55$  sm dan  $0,70 \pm 0,19$  sm gacha kamaygan;

"shtangani ko'krakdan siqib ko'tarish" mashqini bajarishda yondashuvlar soni va shtanga og'irligini o'quv-mashg'ulot jarayonida aniqlash turli og'irliklar bilan harakatlarni tezkorlik qobiliyatini rivojlantirish usulini joriy etish orqali, qisqa vaqt ichida innovatsion uskunalar "Push Band" va yurak-qon tomir tizimining yuklamaga bo'lgan reaksiyasini kuzatish uchun Polar h10 yordamida shtangani ko'krakdan siqib ko'tarishda kuch va quvvatni aniqlash orqali yangi optimal hisoblash bo'yicha taklif va tavsiyalar Toshkent shahridagi "UNDEGRAUND" sport kulibidagi terma jamoa vakillari mashg'ulotlariga tadbiiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil 5-maydagi 04-01/04/20/4279-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, paralimpiyachilarning ko'krak dan shtangani siqib ko'tarish mashqidagi ko'rsatkichlari yengil vazn toifasida 27,4%, o'rta vazn toifasida 21,2 %, og'ir vazn toifasida 23,8 % oshgan;

pauerlifter-paralimpiyachi sportchilar shiddatli mashg'ulot yuklamalarini (majmuasini) bajarganidan so'ng ularga nisbatan ishlab chiqilgan "Spine Relaxer" trenajyorida qisqa vaqt ichida dam olish va tiklanish (pastga tortish) usulini qo'llash bo'yicha takliflar Toshkent shahridagi "Turon Deyv" sport kulibidagi terma jamoa a'zolari mashg'ulotlariga tadbiiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil 5-maydagi 04-01/04/20/4279-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqilgan metodika mashg'ulot dasturini

samarali rejalashtirish va mashgʻulot yuklamalarining hajmi va shiddatini oqilona taqsimlashga yordam bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan oʻtgan.

**Tadqiqot natijalarining eʻlon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi boʻyicha jami 8 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik Dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 2 ta maqola, xorijiy ilmiy jurnallarda 1 ta maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya 120 sahifalik kompyuter matnidan iborat boʻlib, kirish, toʻrt bob, xulosalar, amaliy tavsiyalar, adabiyotlar roʻyxati, 13 ta jadval va 39 ta rasmdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili asosida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan. Tanlangan tadqiqot mavzusining mamlakatimizda fan va texnikani rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlariga mosligi asoslab berilgan. Tiklanish tadbirlari asosida pauerlifter-paralimpiyachilarni tayyorlash samaradorligini oshirish masalasining oʻrganilganlik darajasi batafsil yoritilgan. Dissertatsiya ishi olib borilgan Jismoniy tarbiya va sport ilmiy-tadqiqotlar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan tadqiqot mavzusi oʻrtasidagi bogʻliqlik aniqlangan. Tadqiqot maqsadi belgilanib, vazifalar qoʻyilgan va tadqiqot ishining obyekti, predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari qulay tarzda taqdim etilgan. Tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi, ilmiy-amaliy ahamiyati, pauerlifter-paralimpiyachilar shugʻullanadigan sport muassasalariga tatbiq etilishi, shuningdek, eʻlon qilinganligini, dissertatsiya ishining hajmi va tuzilishi haqida maʼlumot berilgan.

Dissertatsiyaning **“Pauerlifter-paralimpiyachilarni tayyorlash muammosini oʻrganilganlik darajasini aniqlashga oid ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida turli patologiyalar yoki jarohatlar tufayli jismoniy imkoniyatlari chegaralangan shaxslarning motor funksiyalarini tiklash bilan bogʻliq masalalar tahlil qilingan. Tadqiqotning maʼlum bir qismi nogironlarning ijtimoiy moslashuvi va rehabilitatsiyasi samaradorligiga bagʻishlangan boʻlib, ularga aqliy va ijtimoiy funktsiyalarni, funksional holat va hayot sifatini baholashni oʻz ichiga olgan koʻrsatkich sifatida qaraladi. Adaptiv jismoniy tarbiya faoliyati va uning integral quyidagi turlari koʻrib chiqilgan: adaptiv jismoniy tarbiya (jismoniy tarbiyaning asoslarini shakllantirish), moslashtirilgan harakat rekreatsiyasi (oʻz-oʻzini tartibga soluvchi harakat faoliyati, muloqot qilish, mehnat qobiliyatini saqlash), adaptiv sport (adaptiv-kompensator imkoniyatlarni maksimal darajada yaxshilash, jismoniy, intellektual, hissiy va aqliy salohiyatni safarbar qilish), jismoniy rehabilitatsiya (yoʻqotilgan qobiliyatlarni tiklash yoki qoplash). Mushak-skelet tizimining chuqur disfunktsiyasi boʻlgan shaxslarda harakat sohasini shakllantirish, bunda masalan G.P.Vinogradov va E.A.Ivanchenko tomonidan ularning muammolari oʻrganilib, tayanch-harakat tizimi shikastlangan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish samaradorligini baholash

usuli ishlab chiqilgan. Jismoniy rekreatsiya asoslari, uning jismoniy tarbiya turi sifatidagi funksional maqsadi, rekreatsion tayyorgarlik, sogʻlomlashtirish texnologiyalari koʻrib chiqilgan. Jismoniy rekreatsiyani psixologik taʼminlash masalalari yoritilgan. Tadqiqotning katta qismi oyoqlari turlicha shikastlangan va mos ravishda har xil adaptiv jismoniy tarbiya turlaridan foydalanishni talab qiladigan shaxslarga bagʻishlangan. Sogʻlom sportchilarga nisbatan tayanch-harakat tizimi shikastlangan paralimpiyachilarning harakat funktsiyalarini tiklash, ularni texnik va taktik tayyorlash bilan bogʻliq masalalar koʻrib chiqilgan. Harakat asimmetriyasi, mushak tonusi va muvozanatni tiklash usullari oʻrganilgan. Shu bilan birga, ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilganda, ogʻir atletika turi boʻyicha, xususan, pauerlifting yoʻnalishidagi, paralimpiyachi sportchilarning jismoniy tarbiyasi, ular bilan sogʻlomlashtirish tadbirlarini tashkil etish, sogʻlomlashtiruvchi va korreksiya dasturlarini yaratish muammolari yetarli darajada oʻrganilmaganligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot usullari va uning tashkil etilishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida ilmiy va maxsus adabiyotlar tahlil qilingan, tadqiqot usullari ochib jarayonida berilgan va muammoni oʻrganish jarayonida 170 ta turli manbalardan foydalanilgan. Tadqiqotda instrumental usuldan faol foydalanib, unda quyidagi asbob va uskunalar qoʻllangan: antropometrik koʻrsatkichlarni oʻlchash uchun sirkul va santimetrli lenta, qoʻl dinamometri, stanometr, shtangani koʻkrakdan siqib koʻtarishda quvvat va tezlanishni baholaydigan Push Band uskunasi. Pedagogik kuzatish, pedagogik nazorat testlari, pedagogik tajriba va matematik-statistik tahlil. Barcha sinovlar belgilangan qoidalarga qatʼiy rioya qilingan holda olingan.

Tajriba toʻrt bosqichda oʻtkazilgan.

Birinchi bosqich – 2019-yil Tayanch-harakat apparati shikastlangan kishilar uchun moslashtirilgan jismoniy tarbiya mazmuni boʻyicha ilmiy va uslubiy adabiyotlar tahlil qilindi.

Ikkinchi bosqich - 2020. “Shtangani koʻkrakdan siqib koʻtarish” mashqini bajarish texnikasining xususiyatlari oʻrganildi va pauerlifter-paralimpiyachilarning qiyosiy tahlili oʻtkazildi.

Uchinchi bosqich - 2021 yil, Trenajyorlar va yordamchi uskunalardan foydalangan holda, pauerlifter-paralimpiyachilarda kuch sifatleri va maxsus chidamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan maxsus rivojlantiruvchi mashqlar majmuasi asosida tayyorgarlik va musobaqa davrining tajriba dasturi taqdim etildi.

Tadqiqotning toʻrtinchi bosqichida olingan barcha tajriba maʼlumotlarni umumlashtirish amalga oshirildi, amaliyotda ishlab chiqilgan dasturlarni joriy etish orqali vazifalarni hal qilishning yuqori darajasi aniqlanib, ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalar shakllantirildi.


Tajribada 14 nafar pauerlifter-paralimpiyachi, jumladan, 2 nafar sport ustasi, 8 nafar sport ustaligiga nomzod, 4 nafar 1-toifali sportchi ishtirok etdi. Pauerlifter-paralimpiyachilarning jismoniy rivojlanish darajasi umumiy tana oʻlchamlari asosida aniqlangan.

“Turon Dave” sport klubining asosiy bazasida “Shtangani koʻkrakdan siqib koʻtarish” mashqini bajarish texnikasini oʻrganish masalasi tahlil qilindi.

Antropometrik va funksional ko'rsatkichlarni o'rganish O'zDJTSU Anatomiya va fiziologiya kafedrasida olib borildi. O'zDJTSUning og'ir atletika bo'limi, Paralimpiya assotsiatsiyasi va "Turon Dave" sport klubida texnik-taktik harakatlarni joriy qilish ishlari olib borildi. Funksional o'lchovlar gemodinamik parametrlarni aniqlash orqali amalga oshirildi: kuch indeksi, O'TS, Robinson indeksi, 1 va 2 yuklamalardan keyin tiklanish muddati. Quvvat imkoniyatlarini baholash dinamometriya - quvvat indeksini aniqlash orqali amalga oshirildi. Sportchilar uchun bu muhim ko'rsatkichdir, chunki u yelka kamari va oyoq-qo'l mushaklarining ish faoliyati va kuchi haqida umumiy tushuncha beradi. "Shtangani ko'krakdan siqib ko'tarish" mashqida sportchilarning kuch qobiliyatlarini aniqlash O'zbekiston Respublikasi Olimpiya qo'mitasi huzuridagi Ilmiy tadqiqot markazi mutaxassislari ishtirokida o'tkazildi.

Dissertatsiyaning **"Tayanch-harakat apparati shikastlangan pauerlifterlarning jismoniy rivojlanishi va funksional holatini pedagogik o'rganish"** deb nomlangan uchinchi bobida o'tkazilgan tadqiqot natijalari tahlil qilingan. Paralimpiya sportchilari o'rtasida Mashkov rombi bo'ylab tana holatining asimmetriyasiga qaratilgan ishlab chiqilgan korreksiya dasturi ko'rib chiqildi. Ushbu muammo texnik vositalar, xususan, "Smit mashinasi", "Gravitron", "Hummer" o'quv moslamalari, turli xil harakat amplitudalaridagi blok trenajyorlari yordamida amalga oshirildi.

G.L.Apanasenkoga ko'ra salomatlik holatini aniqlashda quyidagi ko'rsatkichlar baholandi: O'TS, kuch indeksi, Robinson indeksi, tayanch-harakat apparati; tananing pastki qismi patologiyasi mavjud bo'lgan sportchilar kontingentining xususiyatlarini hisobga olgan holda 5-test biz tomonimizdan o'zgarishlar kiritildi, bu yerda 20 ta maksimal ko'tarishlar soniga almashtirildi (poldan tayanch holatda qo'llarni bukib yozish), bu qon aylanishining daqiqalik hajmi ko'rsatkichini aniqladi (1-rasmga qarang). O'lchashlar davomida olingan ko'rsatkichlar o'rtacha qiymatlarning xatolarini hisoblash, o'zgarish koeffitsiyenti, kvadrat og'ish va ishonchlilik darajasi aniqlandi.



**Izoh:** 1-test - Ketle indeksi, 2 – test - O'TS, 3 – test - Kuch indeksi, 4 – test - Robinson indeksi, 5 - test - DQH tiklanish vaqti.

### **1-rasm. G.L. Apanasenko bo'yicha salomatlik darajasini baholash**

Ketle indeksi bo'yicha, ortiqcha vazn yoki meyorga mos keladigan vazndan iborat kamchiliklar mavjudligi aniqlandi. Shunday qilib, sportchilarning 27,8% da tana vaznining yetishmasligi; 42,8% da vaznning meyorga mos keladigan; 29,4% da ortiqcha vaznmavjudligi aniqlandi. O'TS indeksi 14,3% da past darajada; 35,7% da o'rtacha darajaga ega; 50% da O'TS indeksi yuqori rivojlanish darajasiga ega. KI testi yoki Kuch Indeksi sportchilarning 50% yuqori darajada, kuch sifatlarining o'rtacha rivojlanish darajasi 42,8% da, past daraja esa atigi 7,2% da kuzatildi. Robinson indeksi 42,8% da past ko'rsatkichga ega bo'lganligi aniqlandi, ya'ni aerobik qobiliyatlar standart ko'rsatkichlardan past, tadqiqot ishtirokchilarining 28,8% da "o'rtacha" deb baholandi, ya'ni me'yorga to'g'ri keladi va 28,8% da "o'rtachadan yuqori" deb baholangan. Qon aylanishining daqiqalik hajmi yoki DQH Paralimpiyachi pauerlifterlarning 64,4% da tiklanishning yuqori darajasiga va sub'ektlarning 35,6% da o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori darajaga ega, bu bizga yaxshi tiklanish tezligini aytish imkonini beradi. Paralimpiyachi - pauerlifterlarning jismoniy rivojlanishi baholandi, bu yerda quyidagi ko'rsatkichlar qayt etildi (1-jadvalga qarang).

### 1-jadval


#### Umumiy tana o'lchovlari asosida paralimpiyachi pauerlifterlarning jismoniy rivojlanishini baholash

	Vazn (kg)	Bo'yi (sm)	VBI-(kg/sm)	KD o'ng qo'l	KD chap qo'l
<b>Tajriba guruhi</b>					
$\bar{X} \pm \sigma$	71,6±9,6	168,7±7,5	425,5±119,6	45,2±2,5	41,4±2,1
<b>Nazorat guruhi</b>					
$\bar{X} \pm \sigma$	76,8±11,2	172,3±5,1	382,9±63,7	46,3±2,1	42,6±1,3


1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari va umumiy o'lchovlar ham tana uzunligi, ham tana vaznida farqlanadi, bu vazn-bo'y indeksi (VBI) ko'rsatkichlarida ham o'z aksini topdi. Nazorat va tajriba guruhlaridagi paralimpiya sportchilarining jismoniy rivojlanishi o'rtacha darajada yoki undan ham past deb baholandi. Jismoniy rivojlanishni baholash bo'yicha olingan ma'lumotlar quyidagicha ko'rinishga ega bo'ldi: Tajriba guruhidagi paralimpiya sportchilarining o'rtacha vazni 71,6±9,6 kg, bo'yi 168,7±6,5 smga, vazn-bo'y indeksi 425,5±119,6 kg/sm ga teng bo'ldi, o'ng qo'lining panja kuchi dinamometr bilan o'lchaganda 45,1±2,5 kg ni tashkil etdi, chap qo'lining panja kuchi esa 41,4±2,1 kg ga teng bo'ldi. Nazorat guruhidagi paralimpiya sportchilarining o'rtacha vazni 76,8±11,2 kg ni tashkil etdi, bo'yi 172,3±5,1 sm ga teng bo'ldi, vazn-bo'y indeksi 382,9±63,7 kg/sm ni tashkil etdi, o'ng qo'lining kaft kuchi dinamometr bilan o'lchaganda 46,3±2,1 kg ni ko'rsatgan bo'lsa, chap qo'lining kaft kuchi 42,6±1,3 kg ga teng bo'ldi.

Paralimpiya pauerlifterlari muntazam ravishda mashq qilishlari va musobaqalarda qatnashishlari sababli, ular ko'pincha orqa mushaklarining

konvulsiv qisqarishini boshdan kechirishadi. Shu munosabat bilan, 2-(a) rasmda pauerlifterning yuklamasi ko'rsatilgan, bu yerda orqa va son mushaklariga maksimal bosimni ko'rish mumkin, 2-(b) rasmda Paralimpiya pauerlifterining yuklama taqsimoti ko'rsatilgan, bu yerda yuklamaning asosiy bosimi orqa va bel sohasiga tushgani kuzatiladi. Shu munosabat bilan, paralimpiya pauerlifterining muammosi ko'rin turibdi, bu yerda yotgan holda shtangani siqib ko'tarish paytida sportchi harakatsiz qoladi va katta og'irliklar bilan ishlagandan keyin kuchli og'riqni boshidan kechiradi, bu esa tayanch-harakat apparatining patologiyasi (THAP) bilan bog'liq muammolarni yanada kuchaytiradi.



0



a)

b)

**2-rasm. Yuklamaning vizual taqsimoti a) pauerlifter b) pauerlifter-paralimpiyachi**


Pauerlifter-paralimpiyachi uchun bu harakatni bajarish, shtangani ko'tarish va tushirish ancha qiyin, chunki uning oyoqlari taxta supada tiralmaydi, balki bel mushaklari o'rtasida mumkin bo'lgan eng kichik ko'prik hosil bo'ladi (2 - b rasmga qarang). Natijada bel ko'prigi maksimal balandlikka ega bo'ladi va, shu bilan birga, ko'krak yuqori pog'onani saqlab turishi kerak, bu esa shtangadan ko'krakkacha qisqa masofani ta'minlaydi (3-rasmga qarang).

Shu munosabat bilan o'quv amaliy mashg'ulotiga takomillashtirilgan "Smit mashinasi" trenajyori kiritildi va "Shtangani ko'krakdan siqib ko'tarish" mashqini bajarishda pauerlifter-paralimpiyachilarni tayyorlash jarayoniga kiritilib tanadagi nosimmetriklikni korreksiyalashga qaratildi.

"Shtangani ko'krakdan siqib ko'tarish" mashqini bajarganda mushaklar maksimal darajada taranglashadi, ammo takomillashtirilgan trenajyorda orqa mushaklarining ishlash rejimi o'zgargani tufayli tortilishda kuchlanish paydo bo'lib, shtangani ko'tarish jarayonida mushaklar bo'shashadi va tiklanishga imkon yaratadi. Bunga qo'shimcha ravishda orqa mushaklari mashq qattiq qoplamlı sirt ustida bajarilganda mushaklarning tomir tortishi yuzaga kelmaydi, lekin mushaklar maksimal darajada taranglashgan bo'ladi. Shtangani ko'tarish va tushirishda stabilizator mushaklari, orqa mushaklari, yelka kamari, bilak va qo'l mushaklari faol ishlaydi.




3a rasm. “Shtangani ko‘krakdan siqib ko‘tarish“ mashqi paytida yoysimon ko‘prik (pauerlifter)



3b rasm. “Shtangani ko‘krakdan siqib ko‘tarish“ mashqi paytida qishiq yoysimon ko‘prik (pauerlifter-paralimpiyachi)

Pauerlifter markazlashtirilgan harakatni boshlaydi (pastdan oyoqlariga tayanadi), kamarli ko‘prik og‘irlikni barqarorlashtirishga va yukni ko‘tarishni to‘g‘ridan-to‘g‘ri bajarishga yordam beradi (3-rasm a, b, 4-rasmga qarang).



1. Maksimal kuchlanish
2. O‘rtacha kuchlanish
3. Kuchlanish

**Izoh:** Paralimpiyachi tomonidan shtangani siqib ko‘tarish mashqida yuzaga keladigan “ko‘prik”, ranglar kuchlanish darajasini bildiradi

#### 4-rasm. Paralimpiya pauerlifterining “ko‘prigi” start holatidagi kuchlanishning taqsimoti.

Takomillashtirilgan “Smit mashinasi” trenajyorida dastlabki holat va teskari shtangani siqib ko‘tarish (5-a, -b, -c rasmga qarang).

Pauerlifting bo‘yicha milliy terma jamoada ko‘p yillik mashg‘ulotlar shuni ko‘rsatdiki, asosiy muammo sportchilarning umurtqa pog‘onasida paydo bo‘ladi. Bu nafaqat shtanga bosimi va tortishish kuchlari ta‘sirida, balki mikro ko‘prikning statik rejimi kuchli bosim ta‘sirida ham sodir bo‘ladi. Ushbu holatda uzoq muddatli kuchlanish, mashg‘ulotlar va musobaqalar davrida sportchilar noqulaylik, tananing pastki orqa qismida og‘riq va kuchli tomir tortishishlar yuzaga keladi.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan, bel mushaklarini choʻzuvchi va boʻshashtiruvchi taʼsirga ega **“SpineRelaxer”** trenajyoridan foydalanish sportchilarga qisqa vaqt ichida umurtqa ustunining mushak tizimini tiklashga yordam berdi (7a, 7b-rasmga qarang).

Harakatsiz holatda, tirsagiga tayanib turgan sportchi polga tegmasdan osilib turadi. Bir daqiqadan uch daqiqagacha boʻlgan uchta tezlikdan birini tanlagan holda, sportchi mushaklarini choʻzilgan taʼsirga ega boʻladi, shuningdek zoʻriqishni pasaytiradi va kuchlanishni kamaytiradi. Takomillashtirilgan **“Smit mashinasi”**ning mashgʻulot jarayoniga joriy etilishi mashgʻulot yuklamalarini optimal taqsimlashga va jarohatlar xavfini minimallashtirishga yordam berdi. Avvallari sportchilarni xavotirga solgan jarohatlarning oldi olindi.



A



b



v

### 5-rasm. Takomillashtirilgan **“Smit mashinasi”**da koʻkrak bilan shtanga grifiga tortilish

“Shtangani koʻkrakdan siqib koʻtarish” mashqida kuch sifatlari va jismoniy ish qobiliyatini rivojlantirish tufayli eng yuqori tezlashuvni baholash uchun **“PushBand”** akselerometri yordamida tadqiqotlar oʻtkazildi (4-jadvalga qarang). Tadqiqot toʻrt haftalik mezosiklning boshida va oxirida oʻtkazildi. **“PushBand”** akselerometri boʻyinning oʻrtasiga maxsus tasma bilan oʻrnatildi (6.a, b, c-rasm). Shtangani koʻtarish mashqida kuchning oʻrtacha tezlashuvi bir martalik maksimalning 80% ogʻirligi bilan oʻlchandi. Standart badan qizdirishdan soʻng bitta yondashuvda 3 ta takrorlash amalga oshirildi, shundan soʻng oʻrtacha tezlashuv maxsus dasturiy taʼminot yordamida hisoblab chiqildi.



a



b




v

### 6-rasm. Yuqori tezlanishni oʻlchash uchun **“Push Band”** akselerometri



a) old ko‘rinishi



b) yon ko‘rinishi

### **7-rasm. “SpineRelaxer” trenajyorida umurtqa pog‘onasi mushaklarini bo‘shashtiruvchi va cho‘zuvchi mashq**

Darsning yakuniy qismida cho‘zish xususiyatiga ega bo‘lgan maxsus vositalardan foydalangan holda bajariladigan mashqlardan taqdim etiladi, ya’ni mushaklarni cho‘zish va ularni bo‘shashtirishga, shuningdek, cho‘zuvchi - bo‘shashtiruvchi ta’siriga ega bo‘lgan **SpineRelaxer** simulyatorida ishlashga qaratilgan. Mashg‘ulot davomiyligi 45-60 daqiqa va bu yerda sportchining holatini hisobga olish lozim.

Dissertatsiya ishining **“O‘quv jarayonida texnik vositalardan foydalangan holda maxsus rivojlantiruvchi mashqlar majmuasining samaradorligini baholash”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida pedagogik tadqiqot natijalari, shuningdek, tajriba va nazorat guruhlarini ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili berilgan. Tayorgarlik davridagi natijalarning samaradorligida takomillashtirilgan **“Smit mashinasi”** trenajyoridan foydalanish orqali erishildi. Ikkinchi bosqichda amaliy mashg‘ulotlar umumiy jismoniy tayyorgarlik rejimida o‘tkazildi, ular statodinamik funktsiyani tiklashga qaratilgan bo‘lib, umurtqa pog‘onasining patologik egilishlarini o‘zaro kompensatsiya qilish bo‘yicha ishlar tajribadan so‘ng davom etishi lozim deb topildi. Ushbu mashqni takomillashtirilgan trenajyorda bajarayotgan pauerlifter-paralimpiyachlarining tajriba guruhi shtangani ko‘krakdan siqib ko‘tarish mashqlari samaradorligini oshirdi va uning texnikasini takomillashtirdi.

Pauerlifter-paralimpiyachi tanasining pastki qismi shikastlanganligini hisobga olgan holda amaliy jismoniy faoliyatda, shuningdek, texnik tayyorgarlik va jismoniy tarbiya vositalaridan foydalangan holda olti oylik moslashuvdan oldin va keyin olingan tadqiqot natijalari kuchning rivojlanganini ko‘rsatdi, muvofiqlashtirish qobiliyatlari va texnik ma’lumotlar takomillashgani. 5-jadvalda tajriba va nazorat guruhlarida korreksiyalash tadbirlaridan oldin va keyingi ma’lumotlar keltirilgan.

**5-jadval**  
**Pauerlifter-paralimpiyachilarning morfofunktsional o'zgarishlari dinamikasi va umumiy jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari**

Ko'rsatkichlar	Tajriba guruhi				Nazorat guruhi					
	Korreksiyadan oldin	Korreksiyada n so'ng	Farqlarning ishonchilligi		Korreksiyadan oldin	Korreksiyada so'ng	Farqlarning ishonchilligi			
			farqi %da	t			P	farqi %da	t	P
Umurtqa pog'onasi egriligi ko'rsatkichi (sm)	3,3±0,6	2,6±0,5	21,9	3,1	<0,01	3,1±0,7	2,8±0,6	9,9	1,2	>0,05
Tos qiyshiqiligi (sm)	3,2±0,4	2,6±0,5	18,4	2,9	<0,05	3,1±0,6	2,8±0,6	8,1	1,0	>0,05
Turnikda tortilishlar (marta)	18,3±3,5	22,4±3,1	22,5	3,1	<0,01	19,3±3,6	22,7±3,1	14,5	2,4	<0,05
Orqa va bel mushaklari kuchi ko'rsatkichi	138,3±9,7	148,1±9,2	6,6	2,6	<0,05	139,9±11,2	146,7±8,0	4,7	1,7	>0,05
Yelka indeksi (%)	64,3±3,1	73,3±3,9	12,3	6,3	<0,001	66,1±5,6	71,6±5,6	7,6	2,4	<0,05

Biz taklif qilgan maxsus mashqlar majmuasi ikkita vazifani hal qildi: birinchidan, dastlabki bosqichda harakatlar mushaklarning nosimmetrikligini va tananing holatidagi turli xil og'ishlarni, xususan, tos, yelkaning qiyshayish darajasini bartaraf etishga qaratildi. To'g'ridan-to'g'ri tananing pastki qisim mushaklari shikastanganidan kelib chiqadigan bel umurtqa ustunining patologik burmalaridagi nuqsonlarini kamaytiradi. Bularning barchasi biomexanik parametrlarga ham ta'sir qildi. Ushbu turdagi tuzilish tananing umumiy og'irlik markazi joylashishini va uning ta'sir etish maydoniga munosabatini o'zgartiradi.

Umurtqaning egilishi skoliozga xos patologik yoyni hosil qiladi, shuning uchun tana frontal tekislikka nisbatan oldinga siljiydi yoki tanadan tushirilgan vertikal o'ngga yoki chapga, ya'ni sagittal tekislikka nisbatan siljiydi. Bunday holatlarda tananing barqarorligi yo'qoladi, buning natijasida tana oldinga yoki yon tomonlarga og'adi. Patologik statodinamik egirilik shakllanishiga olib keladigan muvofiqlashtirish qobiliyatining buzilishi ham mavjud TGda tushirilgan vertikal ta'sir etish maydonining markazida emas, balki oldinga, o'ngga yoki chapga moyillik bilan o'tganligi sababli, bu tananing beqaror holati saqlanib qolishini ko'rsatadi va sezilarli pasayishdan dalolat beradi, umurtqa pog'onasining statodinamik funksiyasi  $25,20 \pm 4,25$  mm,  $37,20 \pm 12,68$  mm,  $36,83 \pm 6,01$  mm. Shunga o'xshash ko'rsatkichlar NGdanam qayd etilgan bo'lib, ular  $799,01 \pm 24,8$  va  $700,89 \pm 24,20$  ni tashkil etdi. Olingan ma'lumotlar tajriba davomida aniqlangan bir qator og'ishlar ko'rsatkichlarining yaxshilanishi bilan tasdiqlanadi.

Shunday qilib, tos suyagining egilishi  $3,19 \pm 0,55$  dan  $0,70 \pm 0,19$  sm gacha kamaydi; NGda tos suyaklarining egriligi ham kamaydi va  $3,26 \pm 0,45$  ni tashkil etdi, lekin TGga nisbatan sezilarli darajada past va  $2,11 \pm 0,39$  sm ni tashkil etdi. TG uchun farqlar ulushi 77,9%, NG uchun esa 35,3%, ( $P < 0,05$ ).

